



XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

DAVLAT RAMZLARINING SIYOSIY AHAMIYATI

Zebiniso Ulug‘bekova

Samarqand davlat universiteti,
Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar
fakulteti, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada davlatimiz ramzlarining mazmun-mohiyatini chuqur o’rganish, ularni yosh avlod ongi, shuuriga singdirish har bir pedagogning burchi ekanligi, mustaqillik sharofati bilan qabul qilingan davlatimiz ramzlari milliy istiqlol g’oyasi va mafkurasi bilan birgalikda o’zbek xalqining azaliy an’analari, udumlari, tili, dili va ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat,adolat, ma’rifat tuyg’ulari yosh avlod ongi va qalbiga singdirilishi lozimligi haqida so’z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Istiqlol, demokratiya, modda, o’zlikni anglash, mustaqillik, sharofat, davlat ramzları, milliy istiqlol.

Davlat ramzları muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari hamda maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g‘oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriylar belgilar majmuidir. Har qanday mustaqil davlatning belgilari jumlasiga uning timsoliy ramzları ham kiradi. Ramzlar-shartli belgilalar bo`lib, ular qadim zamonlardayoq turli xalqlarda u yoki bu hodisa, olam, mavjudot, odamlar tasvirini ifodalagan. Ramzlar bevosita xalq, millat hayoti, an’analari, ruhiyati, folklori, tarixi bilan chambarchas bog`liqdir.

Davlat ramzları – bu mustaqil davlatning muhim tashqi belgilarini o`zida mujassamlantiradi. Davlat ramzlarida xalqning azaliy orzusi, uning ezgu niyatları, bugungi hayot mazmuni aks etadi. O`zbekiston Respublikasining bayrog`i, gerbi va madhiyasi. Har bir mustaqil davlat o`z bayrog`i, gerbi va madhiyasiga ega bo`ladi. Konstitutsiyamizning 5-moddasida davlatimiz bayrog`i, gerbi va madhiyasining huquqiy asoslari belgilab berilgan. Yo`lboshchimiz ta’kidlaganidek, “Davlatimiz ramzları - bayroq, gerb va madhiya O`zbekiston xalqlarining shon sharafi, g`ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o`zida mujassamlashtiradi” va ular haqida maxsus qonunlar qabul qilingan. O`zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining ramzları muqaddas bo`lib, ularni har qanday yo`l bilan taxqirlash qonun bilan javobgarlikka tortiladi. Davlat ramzları xaqida gapirar ekanmiz, avvalo ularning mohiyati, nima uchun zarurligi va tarixiy kelib chiqishi haqida ham bilib olish kerak. Shundagina ularning davlat hayetida tutgan o`rnii va ahamiyati tushunarli bo`ladi.

Milliy ramzlarimiz Vatanimiz suvereniteti, xalqimizning nafaqat azaliy umid va istaklari, balki porloq kelajagi timsollari bo`lgani tufayli ularni hurmat qilish, asrash barchamizning fuqarolik burchimizdir. Zero, “O’zbekiston Respublikasi Davlat gerbi



XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

to'g'risida"gi qonunning 8-moddasida "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek O'zbekistonda turgan boshqa shaxslar O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbini hurmat qilishlari shart", deb belgilab qo'yilgan. Binobarin, Davlat gerbi mamlakatning siyosiy, milliy, geografik, etnik va boshqa o'ziga xos xususiyatlari, boy tarixiy an'analarini ifodalaydi. Undagi har bir timsol esa milliy an'ana va qadriyatlarimizning boqiyligi, ma'naviyatimiz yuksakligi, iroda va e'tiqodimiz mustahkamligi ramzidir.

Davlag bayrog'i – bu tavsiri qonun tomonidan (ko`pincha Konstitutsiya bilan) o`rnataladigan, biror davlatni boshqa davlatlardan farqlovchi rasmiy belgisi, nishonidir U davlat mustaqilligi, suvereniteti ramzi hisoblanadi Davlat bayroqlari, ularning rangi, tuzilishi va emblemalari o`zboshimchalik bilan, ixtiyeriy suratda belgilanmaydi Ular ma'lum ramziy ahamiyatga ega bo`lishi kerak.Davlat bayrog'i davlat muassasalari, elchixonalar, konsulliklar, missiyalar, bojxonalar va shu kabi qarorlarning binosida ko`tariladi. Elchixonalar, missiyalar, konsulliklar milliy bayramlari kuni o`z mamlakatlarining bayroqlarini osib qo`yadilar. Davlat bayroqlari, shuningdek xalqaro konferensiylar ochilishida, rasmiy marosim-uchrashuvlar vaqqida, xalqaro sport sovrinlari berilayettan vaqtida va xokazo holatlarda ham ko`tariladi.

Madhiya– grekcha “gamn” so`zidan olingan bo`lib, u dasturiy harakterdagи she'rni tantanali qo`shiq qilib tarannum etilishi ma'nosida qo`llaniladi. Madhiyalarning bir necha turlari mavjud. Masalan, davlat, inqilob, harbiy, diniy va hokazo madhiyalar bor. Bularning ichida eng asosiysi davlat madhiyasi hisoblanadi.Davlat madhiyalari hozirga zamon barcha mustaqil davlatlarida mavjud bo`lib, u davlat bayroq va davlat gerbi bilan bir qatorda davlatning rasmiy tantanavor ramzi bo`lib hisoblanadi.

Shunday qilib, yurtboshimiz haqli ravishda ta'kidlaganidek «Davlatimiz ramzlari – bayroq, tamg`a, madhiya O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g`ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o`zida mujassamlashtirdi. Mana shu ramzlarni e'zozlash – o`zining qadr-qimmatini, o`z mamlakatiga va shaxsan o`ziga bo`lgan mustahkamlash demakdir». Demak, O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari faqat o'zbek davlatigagina taalluqli bo`lib, mohiyati chuqr ma'noga ega shartli belgilar badiiy ifoda sifatida ma'lum bir ko`rinishlarda aks etadiki, bunday ko`rinish ohanglar, so`zlar, tabiat tasviri, ranglar, astrologik jismlar va boshqa turli shakllarda bo`lib, xalqimizning o`tmishi, istiqboli, g`ururi va faxrini o`zida mujassamlashtiradi. Shundan biz sanab o`tgan milliy davlat ramzlari olamshumul voqeа, ular mustaqil



XALQARO ANIQ FANLAR TAHLILI

O`zbekiston davlatining yorqin timsollari bo`lib, bu timsollar bugun, erta va buyuk kelajagimiz uchun munosib xizmat qilajak. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, “shu ramzlarni e'zozlash— o`zining qadr-qimmatini, o`z mamlakatiga va shaxsan o`ziga bo`lgan ishonchni mustahkamlash demakdir”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Olim Sultonmurod. Davlat ramzlari muqaddas. 2013-yil, 10-aprel 2-son.
2. Abdurahmanova, M. (2021). LEGAL FUNDAMENTALS OF LAND RESOURCES OF USANCE TO ACHIEVE ECONOMIC EFFICIENCY. Экономика и финансы (Узбекистан), (Спецвыпуск 4), 187-189.
3. Abdurahmanova, M., & Nurmatova, S. (2022). QORA RANG TALQINI HAQIDA. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 74-78.
4. Atadjanova, M. A. (2016). Animatic mythology and its functional nature in the current Uzbek prose. Молодой вчений, (1), 290-294.
5. Ergashevna, S. N. (2021, November). Traditions of khorezm caliphate and their peculiarities. In Archive of Conferences (pp. 120-123).
6. Israilova, S. (2023). TARIXIY MANBALARDА RANGLAR TALQINI. 0 'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI.
7. Omanbaevna, O. M. (2020). MYTHS AND MODERN UZBEK STORIES (some commentary on the story of Nazar Eshankul's "The tune of a flute" myth-story). ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(12), 49-53.
8. Otajanova, M. (2022). ANALYSIS OF MYTHOLOGYSMS IN MODERN UZBEK PROSE. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 11(5), 16-27.
9. ОТАЖНОВА, М. (2017). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЭВОЛЮЦИЯ МИФОЛОГИЧЕСКИХ СЮЖЕТОВ В УЗБЕКСКИХ ПРОЗАИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ. Научное обозрение Саяно-Алтая, (2), 85-88.
10. Сабирова, Н. Э. (2017). Поэтические символы: становление и эволюция. Молодой ученый, (3), 684-686.